

## TEMURIY MALIKALARINING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI XUSUSIDA

*Xamrayev G.G.*

*JDFU Tarix fakulteti katta o'qituvchiso*

*Ne'matqulov.A.T.*

*JDFU Tarix fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahonga mashhur bolgan va e'tirof etilgan hamda davlat boshqaruvida o'z davrining ulkan tajriba egasi hisoblangan temuriy malika Bibixonim haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Saroy mulkxonim, Chig'atoy, Qozonxon, Amir Husayn, Amir Temur, Bibixonim, Yunusxon, Turkon Xotun.

**Аннотация:** В статье речь идет о тимуридской царевне Бибиханым, которая прославилась и получила признание в мире и считалась обладательницей большого опыта государственного управления.

**Ключевые слова:** Сарай Мулькханум, Чигатой, Казанхан, Амир Хусейн, Амир Темур, Бибиханум, Юнусхан, Туркон Хотун.

**Annotation:** The article deals with the Timurid princess Bibikhanim, who became famous and recognized in the world and was considered the owner of extensive experience in public administration.

**Key words:** Sarai Mulkhanum, Chigatoy, Kazankhan, Amir Hussein, Amir Temur, Bibikhanum, Yunuskhan, Turkon Khotun.

Saroymulkxonim Chig'atoy ulusiga mansub xonlardan biri, Qozonxonning qizi bo'lib, 1341-yilda tavallud topgan. Balog'atga yetgach, Movarounnahr hukmdori Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husaynga turmushga chiqadi. 1370-yilda, Amir Husayning Balx jangi vafotidan so'ng 26 yoshli Saroymulkxonimni Amir Temur nikohiga oladi. Yuksak insoniy fazilatlariga egaligi tufayli Saroymulkxonim, Amir Temur ahli ayollari –malikalarining ulug'iga aylanadi, hamda «kattaxonim» yoxud «Bibixonim» mavqei berildi. U o'z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor ayoli va aql-zakovat sohibasi bo'lgan<sup>1</sup>.

Biroq turli sabablarga ko'ra vayron etilgan. Sohibqiron farmoniga binoan, 1399-1404-yillarda jome' masjid qurib bitkazildi. Ba'zi rivoyatlarda Amir Temur masjidini dono va oqila xotini Saroymulkxonimga tuhfa qilgan, deyishadi. Shuning uchun bo'lsa kerak Amir Temur jome' masjidi ham Bibixonim nomi bilan shuhrat topgandir. Temuriyzodalar tarbiyasi bevosita

---

<sup>1</sup> Boburnoma'' nashriyot < Yangi Asr avlodi>.2018-y

Bibixonim bilan bog‘liq. U Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Sulton, Xalil Sultonlarning ilm-ma‘rifatni anglashida rahnamolik qilgan. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek sog‘lom o‘ssishi, diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallashida, Bibixonimning mehnati beqiyosdir<sup>2</sup>.

Sohibqiron Temurning o‘limidan so‘ng, Samarqand taxti, uning nabirasi Xalil Sultonga o‘tdi shu davrda Bibixonim ancha qiyinchiliklarga duch keladi. 1409-yilda Samarqand taxtini Shohruh Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek egallaganda sevikli buvisi Bibixonim hayotdan ko‘z yumgan edi. Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgach, «ko‘ragon» unvoniga musharraf bo‘ldi. Ko‘ragon iborasi mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, «kuyov» degan ma‘noni ifodalaydi. Zero, Saroy Mulk xonim mo‘g‘ul xonlaridan birining qizi bo‘lgani tufayli sohibqiron Amir Temur mo‘g‘ul xonining kuyovi, ya‘ni «Amir Temur Ko‘ragon» nomini olgan edi. Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroy Mulk xonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, «katta xonim» yoxud «Bibixonim» degan unvonga noil bo‘ladi. Albatta, bunday e‘zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi

Turkon xotun-Xorazmshoh Takish qipchoqlar bilan ittifoqqa kirib, ularni o‘ziga og‘dirish niyatida qipchoq xoni Jonkishining qizi Turkon Xotunga uylanadi. Bayot urug‘idan bo‘lgan Turkon Xotun Xorazmga turk qabilalari (uraniylar, qarluqlar, ug‘roqlar, xalaj qabilalari)ni olib keladi va ularning qudratli homiysiga aylanadi. Hijriy 596 yil 20 shavvol (1200 yil 3 avgust)da Gurganj aholisi, davlat a‘yonlari va amirlari ishtirokida Xorazmshohlar davlati taxtiga Takish va Turkon Xotun o‘g‘li Qutbiddin Muhammad o‘tirdi va u otasining Alouddin laqabini qabul qildi. Keyinroq esa Sanjar ikkinchi nomini oldi. An-Nasaviy Turkon Xotun haqida quyidagicha tavsif qoldirgan: «Yuqorida aytib o‘tilgan Turkon Xotun Bayavut toifasidan bo‘lib, yemak urug‘ining shoxobchasidandir. Qachonki, uning mavqei mustahkamlangandan so‘ng «Xudovandi Jahon», ya‘ni butun dunyo hukmdori laqabini olgan edi. U turkiy hukmdorlardan Jonkishining qizi bo‘lib, El-Arslonning o‘g‘li Takish unga uylanadi. Takish o‘lgandan so‘ng davlat

---

<sup>2</sup> Fayziyev.T.Temuriylar shajarasi. "Fan"., 1995., 135-bet.

tepasiga kelgan o'g'li Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida onasi Turkon Xotunning obrusi ko'tarilib, davlat ishlarini ham boshqargan".Hatgo Xorazmshoh Muhammad mastligida onasi Turkon Xotunning xiyonati tufayli shayx Najmiddin Kubroning shogirdi shayx Majididdin Bag'dodiyini qatl qilish haqida farmon ham beradi. Bag'dodiyning qatl qildirilishi din ulamolarini Muhammaddan ixlosini qaytargan edi. Turkon Xotunning bunday nodonligi Xorazmshohlar davlatiga sonsiz kulfatlar keltirdi. Bundan tashqari, katta qudratga ega bo'lgan sarkardalarining ko'pchiligi qipchoqlardan bo'lgani bois, hukmdor onasiga yon berishga majbur edi.An-Nasaviy bunday yozadi: «Agar malikadan va sultondan bir ish haqida ikkita ko'rsatma kelsa, u holda ularning sanasiga qarar edilar va barcha mamlakatlarda keyingi sanaga amal qilardilar...»Turkon Xotun «Jahon hokimi» laqabiga ham ega edi, uning farmonlaridagi shaxsiy muhri — tug'risida: «Ismat ud-dunyo vad-din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyn» (Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi) deb bitilgan edi. U «I'tasamtu billahi» («Faqat Allohdan himoya kutaman») deyilgan so'zlarni bosh shior qilib olgan. U o'z shiorini o'g'li shiorining yoniga qo'yar edi..Gurganj shahrida Turkon Xotunning qarindoshlaridan sultonning turkiy qo'shiniga tegishli nufuzli a'yonlargina (boshliq o'rnida) edilar, jumladan, Xumor Ag'u — hojib sipohsolor (lashkarboshi), Buka Pahlavon, Ali Marg'ini va boshqalar. 1220 yili Xorazm mo'g'ullar tomonidan istilo qilingach, Sulton Alouddin Xazar dengizidagi Abiskin orollaridan biriga qochishga majbur bo'ldi.Noshukr malika Ilol shahri Mozandaronga etgach, yo'l boshlovchini ham qatl qildiradi. Chingiz lashkarlari Turkon Xotun izidan borib, Ilol shahrini qamal qilib, ko'p o'tmay uni ham bosib oladi.<sup>3</sup> Malika Xorazmshohning butun harami, bolalari bilan asirga tushadi. Mo'g'ullar shoh bolalarini o'ldirib, haram ayollarini xotin qilib oladilar, Turkon Xotun esa Chingizxon qarorgohiga jo'natiladi. Turkon Xotunning asirlikdagi ahvoli juda ayanchli edi, u Chingizxonning dasturxonida qolgan sarqiti bilan ovqatlanardi. Bir paytlar har qanday farmoyishi darhol bajarilgan malikai jahon Turkon Xotun 1233 yili xoru zorlikda vafot etadi.

Qutlugnigorxonim— farg'ona viloyati hukmdori umarshayx mirzoning to'ng'ich xotini. Uning otasi Yunusxon Chingizxonning 2-o'g'li Chig'atoyxon naslidan bo'lgan, onasi Eson Davlat begim tuman beklaridan Sher Xonibekning qizi edi. Yunusxon Eson Davlat begimdan 3 qiz ko'rgan. Q.N. o'rtancha qiz bo'lgan. Q.N. Umarshayx mirzoga uzatilgach, undan bir qiz (Xonzodabegim) va bir o'g'il (Zahiriddin Muhammad Bobur) ko'rgan. Dono, oqila, mehribon va vafodor bu ayol Boburning Temuriylar saltanatini inqirozdan saq-lab qolish

---

<sup>3</sup> Jaloliddin Manguberdi'' Maqsud Shayxzoda

maqsadidagi harakatlarida madadkor bo'lgan, darbadarlik vaqtlarida hamrohlik qilgan. Bobur Kobulni qo'lga kiritgandan so'ng, 5—6 oy o'tgach, Q.N. ich terlama kasaliga chalinadi va dunyodan ko'z yumadi. U Ulug'bek tomonidan qurilgan. "Boburnoma"da oqila, mudabbira onalar qanday tasvirlangan?Shonli tariximizdan ma'lumki, valiahd shahzoda, malikalaru podshohlarni nafaqat hayotga, balki mamlakatni boshqarishga tayyorlashda, umuman, millat tarbiyasida zukko, farosatli, ilmli onalarning o'rni beqiyos bo'lgan. Onalarga hamisha yaratuvchi sifatida qaralgan va e'zozlangan.O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Burobiya Rajabovadan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning muhtasham "Boburnoma" memuarida ona, mudabbira ena, bunyodkor malikalarning tasviri haqidagi savollarimizga javob oldik— O'rganishimcha, Temuriylar Uyg'onish davrida saroy ayollarida ijtimoiy faollik o'sgan. Bunyodkorlikni o'zlariga sharaf deb bilgan malikalarning davlat ishlaridagi faolligi himmat va ehsoni bilan belgilangan. Ular mamlakatning obodligi, farovonligi yo'lida hamda aql va qo'l ixtirolarining mamlakat bo'ylab yoyilishida saxiy mulkdorlar qatorida pul tikib, madrasalar, masjidlar, rabotlar qurdirgan, suv chiqargan, bog'lar barpo qilgan.Bobur Temuriylar Renessansi davrining murakkab saroy hayotiga ham ahamiyatqaratgan. Ancha yangi gaplar aytgan."Boburnoma"da yozilgan muhim ma'lumotlardan biri bu – onasi haqidagi xabarlardir. Bobur onasi Qutlug' Nigorxonimni "Boburnoma"da o'ndan ortiq ma'lumotlarda tilga oladi.

<sup>4</sup>Gulbadanbegim- (1522, Kobul -1603, Dexli) — Amir Temur avlodidan, Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda yagona ayol-tarixchi.Zahiriddin Muhammad Boburning qizi. Onasi Dildor begim. Gulbadan begim otasi Bobur podshohning farmoniga ko'ra katta onasi ya'ni Humoyun Mirzoning onasi - Mohim begim qo'lida tarbiyalangan. U 1529-yilda Agraga borgan. Yoshligidan adabiyot va tarixga qiziqqan. Zamonasining barcha bilimlaridan boxabar bo'lgan, fors tilini mukammal o'zlashtirgan, "Boburnoma"ni mutolaa qilgan. Umrining oxirigacha asosan Hindistonda yashagan, Makkada bo'lgan (1575—82). Akbar buyrug'iga ko'ra Bobur va akasi Humoyun haqida "Humoyunnoma" asarini yaratgan. Asarda 15-asrning oxiri — 16-asrning o'rtalarida Movarounnaxr, Afg'oniston va Hindiston hududlarida ro'y bergan voqealar bayon qilinadi.Gulbadan begim o'z asarida saroy ahlining hayot tarzi, shuningdek, tarixiy asarlarda uchramaydigan Bobur podshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va aza bilan bog'liq udumlar, uy-ro'zg'or asboblari, kiyim-kechak turlari kabi jihozlar haqida mufassal hikoya qiladi. Unda

---

<sup>4</sup> O'zbekiston adabiyoti san'ati''2008-yil.

"Boburnoma"da tasvirlangan voqealarning davomi qalamga olingan, shuningdek, "Boburnoma"ga kirmagan ba'zi voqea-hodisalar aks etgan... Asarning 83 varakdan iborat yagona qo'lyozma nusxasi Angliyaning Britaniya muzeyida saqlanadi. Unda voqea tugallanmagan, ingliz sharqshunosi Charlz Ryo o'z katalogida uning qisqa tavsifini bergan. Ingliz olimasi A.S. Beverij ingliz tiliga (London, 1902), S. Azimjonova o'zbekchaga (Toshkent, 1959) tarjima qilib, forscha asl nusxasi va izohlari bilan nashr ettirganlar. Tarixchi olim Abulfazl Allomiy "Akbarнома" asarini yaratishda "Humoyunnoma"dan keng foydalangan.

Xulosa o'rinida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'rta asrda sharq davlatlarida ayolarning davlat boshqaruvida ayollar erkaklar bn tengma teng boshqarishga harakat qilganini korsatishimiz mumkin.Sharq malikalarning davlat boshqaruvida faol siyosat olib borilganini biz Bibixonim misolida ko'rishimiz mumkin.Qutlugnigorxonimga kelsak u turmush o'rtog'I vafot etgan bolsa hamu ayol boshi bn o'zining farzandi hisoblangan Boburni davkatni boshqarishda katta o'rin egallangan.Gulbadanbegim Boburning qizi bolib u otasiining ishini davom ettiradi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boburnoma'' nashriyot "Yangi asr avlodi". 2018.
2. "O'zbekiston adabiyoti san'ati'' 2008-yil.
3. "Jalolidin manguberdi'' AN-Nasaviy' 2017.
4. "Jalolidin Manguberdi'' Maqsud Shayxzoda 2010.
5. O'zMe.Birinchi jild.Toshkent.2000-y
6. Fayziyev.T.Temuriylar shajarasi.1995-y.